

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Huquq fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishi yo‘nalishlarida mavjud muammolar hamda huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha milliy metodika ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - huquq ustuvorligi indeksida O‘zbekistonning pozitsiyasini yaxshilash maqsadida, hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishiga oid subindikatorlar bo‘yicha yuqori reytingga ega davlatlar tajribasi asosida choratadbirlar ishlab chiqiladi; - hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishi yo‘nalishlarida huquqni qo‘llash amaliyotiga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi; - tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, amaldagi qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha normativ- huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanadi; - hokimiyat organlari vakolatlarining sud hokimiyati, mustaqil tekshiruvlar hamda jamoatchilik nazorati orqali samarali cheklanishi yo‘nalishlarida mavjud muammolar hamda huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha milliy metodika ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Adliya vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Adliya vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Adliya vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.